
**Onlayn va masofaviy ta'limda
talabalarning tanqidiy fikrlash
ko'nikmalarini shakllantirish
metodlari****Mirzayeva Nasiba Baxtiyor qizi**mnasiba562@gmail.com

Ingliz tili o'qituvchisi,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Annotatsiya

Ushbu maqolada onlayn va masofaviy ta'lim sharoitida talabalarning tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirish usullari tahlil qilinadi hamda o'qituvchilar tomonidan qo'llanishi mumkin bo'lgan samarali yondashuvlar tasvirlanadi. Tadqiqotda interaktiv va talaba markazli strategiyalarning ahamiyati ortib borayotgani, ularning virtual ta'lim muhitida faol ishtirokni rag'batlantirishdagi o'rni alohida ta'kidlanadi. Muammo asosida o'qitish, muhokama forumlari, keys-stadi hamda raqamli simulyatsiyalar orqali talabalarning bilimni shunchaki qabul qilish emas, balki savol berish, baholash va ma'lumotni sintez qilish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyati yaratilishi ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, guruh loyihalari va o'zaro fikr-mulohaza almashinuvi kabi hamkorlikka asoslangan faoliyat shakllari tahlil qilinadi. Ular talabalar o'rtasida hamkorlik va turli nuqtai nazar almashinuvini rag'batlantiradi hamda reflektiv tafakkurni rivojlantiradi. Bundan tashqari, onlayn konferensiya platformalari, ta'limni boshqarish tizimlari va sun'iy intellektga asoslangan ilovalar kabi innovatsion texnologiyalarni qo'llashning imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ushbu metodlarni masofaviy ta'limga integratsiya qilish talabalarning tanqidiy tafakkurini sezilarli darajada rivojlantirib, ularni ilmiy va kasbiy muhitda mustaqil, tahliliy hamda moslashuvchan shaxs sifatida shakllantiradi.

Kalit so'zlar

Tanqidiy fikrlash, masofaviy ta'lim, onlayn o'qitish, interfaol metodlar, tahliliy fikrlash, talabalar

**Методы формирования
критического мышления
студентов в условиях онлайн
и дистанционного обучения****Мирзаева Насиба Бахтиёр кизи**mnasiba562@gmail.com

Преподаватель английского языка,

Ташкентский государственный университет

узбекского языка и литературы

имени Алишера Навои

Аннотация

В данной статье анализируются методы развития критического мышления студентов в условиях онлайн- и дистанционного образования, а также описываются эффективные подходы, которые могут быть применены преподавателями. В исследовании подчеркивается возрастающее значение интерактивных и ориентированных на учащегося стратегий как важнейших инструментов активного вовлечения в виртуальную учебную среду. Особое внимание уделяется таким методам, как проблемное обучение, дискуссионные форумы, кейс-стади и цифровые симуляции, которые создают условия для того, чтобы обучающиеся не просто пассивно усваивали знания, а учились задавать вопросы, оценивать и синтезировать информацию. Рассматривается также роль совместных

форм работы – групповых проектов и взаимной обратной связи, способствующих сотрудничеству и обмену разнообразными точками зрения, что стимулирует рефлексивное мышление. Кроме того, анализируется использование инновационных технологий, таких как онлайн-платформы для конференций, системы управления обучением и приложения на основе искусственного интеллекта, обеспечивающих гибкие и доступные средства для критического анализа. Результаты показывают, что интеграция этих методов в дистанционное обучение существенно повышает уровень развития критического мышления, делая студентов более самостоятельными, аналитическими и адаптивными в академической и профессиональной среде.

Ключевые слова Критическое мышление, дистанционное обучение, онлайн обучение, интерактивные методы, аналитическое мышление, студенты

Methods of Developing Students' Critical Thinking Skills in Online and Distance Education

Mirzayeva Nasiba Bakhtiyor qizi

mnasiba562@gmail.com

English language teacher,
Alisher Navoi Tashkent State University of
Uzbek Language and Literature

Annotation *This article analyzes methods for developing students' critical thinking skills in online and distance education environments and describes effective approaches that can be implemented by educators. The study emphasizes the growing importance of interactive and learner-centered strategies as essential tools for promoting active engagement in virtual classrooms. It highlights how problem-based learning, discussion forums, case studies, and digital simulations create opportunities for learners to question, evaluate, and synthesize information rather than passively receive knowledge. The analysis also considers the role of collaborative platforms, such as group projects and peer feedback, which foster cooperation and the exchange of diverse perspectives, thereby encouraging reflective thinking. Furthermore, the paper examines how innovative technologies – such as online conferencing tools, learning management systems, and AI-driven applications – provide flexible and accessible means for critical inquiry. The findings demonstrate that integrating these methods into distance learning can significantly enhance the development of critical thinking skills, making students more independent, analytical, and adaptable in both academic and professional contexts.*

Keywords *Critical thinking, distance education, online learning, interactive methods, analytical thinking, students*

Kirish

Bugungi kunda ta'lim jarayonida talabalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini

rivojlantirish dolzarb vazifalardan biriga aylangan. Tanqidiy fikrlash – bu shunchaki ma'lumotni yod olish emas, balki uni tahlil

qilish, baholash va to'g'ri xulosa chiqarish qobiliyatini anglatuvchi murakkab aqliy jarayondir. Tanqidiy fikrlovchi shaxs bahs qilinayotgan masala bo'yicha o'z pozitsiyasini asoslay oladi, boshqalarning fikrini tinglab, dalillar mantig'ini tahlil qila oladi va axborotni tanqidiy baholay oladi. Masofaviy va onlayn ta'lim muhitida esa bunday ko'nikmalar yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda, chunki talaba o'qituvchi bilan yuzma-yuz muloqotdan mahrum holda mustaqil ravishda axborotni izlab topishi, tahlil qilishi va qarorlar qabul qilishi kerak bo'ladi.

O'zbekiston ta'lim tizimida ham tanqidiy tafakkurni shakllantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev "Maktabda o'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lim sifati ham, muhit ham o'zgarmaydi" (Mirziyoyev, 2020,) degan edi. Zero, ta'lim jarayonida zamonaviy fikrlovchi, mustaqil qaror qabul qila oladigan yoshlarni tarbiyalash ustuvor vazifa sanaladi. Tanqidiy fikrlashga ega bo'lgan talaba nafaqat berilgan bilimlarni o'zlashtiradi, balki ularga tanqidiy yondashib, mustaqil fikr shakllantiradi va muammolarni hal qilishda samarali yechimlarni topa oladi. Onlayn va masofaviy ta'limning ommalashuvi (ayniqsa, so'nggi yillarda) ta'lim usullarini qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda. Masofaviy ta'lim bir tomondan talabalarga qulaylik va mustaqillik beradi, biroq ikkinchi tomondan, o'qituvchi va talabalar orasidagi bevosita muloqotning cheklanishi tanqidiy fikrlash kabi yuqori darajadagi ko'nikmalarni rivojlantirishda qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Shu sababli, pedagoglar masofaviy muhitda talabalarning tanqidiy tafakkurini shakllantirish uchun maxsus strategiya va metodlardan foydalanishlari zarur. Ushbu ishning maqsadi – onlayn va masofaviy ta'lim sharoitida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beruvchi samarali metodlarni o'rganish va ular amaliyotini yoritib berish.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Tanqidiy fikrlash tushunchasi pedagogika va psixologiya sohalarida keng tadqiq qilingan. Pedagog olimlar tanqidiy fikrlashni mustaqil va

mantiqan fikrlay oluvchi shaxsni tarbiyalashning asosiy sharti sifatida ko'rsatadilar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uzluksiz va tizimli yondashuvni talab qiladi. Xususan, bu borada ta'lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni integratsiya qilish katta imkoniyatlar yaratadi. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari (masalan, onlayn platformalar, masofaviy hamkorlik vositalari) o'quvchilarni qiziqtiradigan va ularning tanqidiy fikrlashini faollashtiradigan muhit yaratishga yordam beradi (Fitriani & Prodjosantoso, 2024).

Ilmiy manbalarda masofaviy o'qitishda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning bir qator samarali yondashuvlari qayd etilgan. Jumladan, talabalar o'rtasida onlayn muhokamalar (forumlar) tashkil etish keng qo'llanib kelinmoqda. Biroq tadqiqotlar oddiy onlayn forumlarning hammasi ham yetarli darajada tanqidiy tafakkur yuritishga undamasligini ko'rsatgan – ba'zi hollarda talabalar bir-birining g'oyalariga e'tibor bermasdan, yuzaki javoblar bilan cheklanadi. Shu sabab, olimlar onlayn muhokamalar samaradorligini oshirish uchun yo'naltirilgan (guidance) yondashuvni taklif qiladilar: ya'ni munozaralarda qatnashishni majburiy qilish, mavzuni strukturalangan savollar yoki muammoli vazifalar yordamida berish va o'qituvchi tomonidan o'z vaqtida, ammo me'yorida modepatorlik qilish kabi omillar birgalikda qo'llansa, talabalar chuqurroq fikrlashga jalb etiladi. Misol uchun, onlayn munozarani oldindan ishlab chiqilgan bahs mavzusi va batafsil baholash mezonlari asosida o'tkazish talabalarni bir-birining postlarini diqqat bilan o'qish va fikr bildirishga undagan hamda natijada muhokamalarda tanqidiy yondashuv kuchayganligi kuzatilgan (Jowallah, et al., 2014).

Boshqa tadqiqotlar masofaviy ta'limda talaba markazli va faol o'qitish usullarining ahamiyatini ta'kidlaydi. Masalan, loyiha asosidagi o'qitish (project-based learning) onlayn muhitda talabalarni mustaqil izlanish va muammoni hal qilishga rag'batlantirib, ularning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishi qayd

etilgan (G'afforova, 2012). Xuddi shunday, vaziyatga doir tahlil (case-study) va simulyatsiya kabi interfaol usullar talabalarni nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo'llashga o'rgatadi va bu jarayonda ular tahliliy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Ta'limda aralash o'qitish (blended learning) modeli ham tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda samarali ekani ilmiy adabiyotlarda keltirilgan. An'anaviy darslar bilan birga onlayn muhokamalar, interfaol trenerlar va masofaviy topshiriqlar uyg'unligi talabalarni mustaqil faoliyatga jalb etib, ular fikrlash doirasini kengaytiradi (Jowallah, et al. 2014).

Masalan, aralash ta'lim jarayonida talabani sinfdagi munozaralarda ham, onlayn forumlarda ham qatnashishi natijasida tanqidiy tahlil qilish qobiliyati oshgani kuzatilgan. Bundan tashqari, rol o'ynash o'yinlari kabi gamifikatsiya elementlari ham talabalar faolligini oshirib, tanqidiy fikrlashni rag'batlantiradi.

Zamonaviy tadqiqotlarda mobil ilovalar orqali miya gimnastikasi (brain training) ham e'tiborga olinmoqda. Xitoylik tadqiqotchilar H. Song va L. Cai (2024) o'tkazgan tajribada universitetning birinchi bosqich talabalari maxsus mobil ilova (Lumosity) yordamida bir oy davomida aqliy mashqlar bajardilar. Bu ilova asosan xotira, tezlik, moslashuvchanlik va muammoni hal etish kabi ko'nikmalarni rivojlantiruvchi o'yinlardan iborat bo'lib, mazkur ko'nikmalar tanqidiy fikrlashning tarkibiy qismlari hisoblanadi. Tajriba natijasida ushbu interfaol mashg'ulotlar guruhi talabalarning tanqidiy fikrlash bo'yicha test natijalari sezilarli darajada yaxshilandi (bir oylik mashg'ulotdan so'ng guruhning o'rtacha bali oshgan, farq $p = 0.012$ darajada ahamiyatli). Bu shuni ko'rsatadiki, yaxshi ishlab chiqilgan interfaol o'yin elementlari cheklangan vaqt davomida ham talabalarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, masofaviy ta'limda tanqidiy fikrlashni shakllantirishda ochiq ta'lim resurslari (OER) va onlayn o'quv jamoalarini

shakllantirish kabi yangi yondashuvlar taklif etilmoqda. Ilmiy manbalarda keltirilishicha, o'quvchilarning biror mavzuni chuqur o'rganib, o'zaro fikr almashishlari uchun onlayn hamjamiyatlar yaratish va bepul elektron resurslardan foydalanirish ularning reflektiv (mulohazakorlik) ko'nikmalarini oshiradi. Bunday muhitlarda talabalar birgalikda muammo ustida ishlashadi, turli manbalarni tahlil qilishadi va erkin muloqot orqali bir-birlarining dunyoqarashini boyitadilar – bu jarayon, tabiiyki, tanqidiy fikrlashni tarbiyalaydi.

Xulosa qilib aytganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, onlayn va masofaviy ta'limda talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish uchun faol ishtirok va muloqotga undovchi, hamda texnologik vositalar bilan boyitilgan metodlar eng samarali sanaladi. Bunda o'qituvchilarning roli ham muhim – ular tanqidiy fikrlashni shakllantirishga qaratilgan maxsus topshiriq va muhitlarni yaratib berishi, jarayonni uzluksiz ravishda qo'llab-quvvatlab borishi kerak. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish murakkab jarayon bo'lib, u doimiy mashq va qat'iy e'tiborni talab qiladi. Shu bois, pedagog va talabalarning barchasi tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini shakllantirish jarayoniga ongli ravishda, birgalikda bel bog'lab kirishishi maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda masofaviy ta'limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish usullarini o'rganish uchun aralash (mixed) tadqiqot metodidan foydalanildi. Avvalo, mavzuga oid mahalliy va xorijiy manbalar tahlil qilinib, ilgari taklif qilingan strategiyalar umumlashtirildi (adabiyotlar tahlili bosqichi). Keyingi bosqichda esa kichik tajriba-sinov o'tkazilib, ayrim metodlarning samaradorligi amaliyotda tekshirildi.

Tajriba uchun universitetning 2-3-kursida tahsil olayotgan 60 nafar talaba ixtiyoriy asosda tanlab olindi va teng ikki guruhga – eksperimental va nazorat guruhlariga ajratildi. Har ikkala guruh boshlang'ich holatda tanqidiy fikrlash darajasini o'lchash uchun

old-test (pre-test)dan o'tkazildi. Buning uchun amerikalik olim Starkey tomonidan ishlab chiqilgan "Critical Thinking Skills Success" metodikasi asosidagi savol-javob testi qo'llandi. Test natijalari talabalarning boshqaruv guruhida ham, eksperimental guruhda ham o'rtacha darajada ekanini ko'rsatdi (masalan, eksperimental guruhda o'rtacha ko'rsatkich 30 balldan ~22 balni tashkil etdi).

Eksperimental guruhda bir oy davomida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan maxsus dastur joriy etildi. Dastur doirasida talabalarga har hafta:

- *Interfaol onlayn munozara:* haftaning ma'lum kunida maxsus forumda yoki videokonferensiya orqali bahsli mavzu muhokamasi tashkil qilindi. Munozara mavzulari talabalarning oldingi bilim va tajribalariga tayangan holda tanlandi hamda Blooms taksonomiyasiga muvofiq dastlab sodda tushunchalarni aniqlashtirish, so'ngra yuqori darajadagi tahlil va baholash talab qiluvchi savollar ketma-ketligi berildi. Munozaralar jarayonida o'qituvchi fasilitator sifatida ishtirok etib, mavzudan chetga chiqmaslikni ta'minladi va zarur paytlarda yo'naltiruvchi savollar bilan bahsni chuqurlashtirdi.
- *Masofaviy guruh loyihasi:* talabalar kichik guruhlariga bo'linib, real hayotiy muammoni hal etishga qaratilgan loyiha ustida ishlashdi. Masalan, 3-kurs talabari uchun "Atrof-muhit muammolarini hal etishda ijodiy yondashuvlar" mavzusida onlayn loyiha topshirig'i berildi. Talabalar o'z guruhlarida muammoni o'rgandilar, turli manbalarni (ilmiy maqolalar, OAV xabarlari, statistik ma'lumotlar) tahlil qilib, yechim taklifini tayyorladilar. Loyiha yakunida har bir guruh o'z yechimini videotaqdimot ko'rinishida taqdim etdi va boshqa guruhlarining savollariga javob berdi. Bu mashg'ulot orqali talabalar kollaborativ tarzda fikr yuritish, dalillarni

tahlil qilish va o'z nuqtai nazarini asoslash ko'nikmalarini rivojlantirishdi.

- *Reflektiv jurnal:* eksperimental guruh talabalariga har hafta o'qitilgan mavzular yuzasidan qisqa esse yoki refleksiya kundaligi yozib borish vazifasi yuklandi. Ular ushbu kundalikda dars davomida o'rgangan bilimlarini, ularni qanday tushunganini va qaysi savollar ularda paydo bo'lganini bayon etdilar. O'qituvchi hafta yakunida jurnal yozuvlarini o'qib chiqib, har bir talabani fikr yuritish jarayoniga individual fikr-mulohaza (feedback) berdi. Bu usul talabalarni o'z tafakkur tarzini kuzatish va uni yaxshilashga undaydi.
- Bundan tashqari, eksperimental guruh darslarida Lumosity kabi interfaol trening ilovasidan ham foydalanildi. Har dars boshida 10-15 daqiqa davomida talabalar ushbu mobil ilovadagi tanqidiy tafakkurga oid mini-o'yinlarni o'ynab ko'rdilar (masalan, mantiqiy xatolarni topish, qisqa muddatli xotirani tekshirish va h.k. o'yinlar). O'yinlardan so'ng o'qituvchi qisqa muhokama o'tkazib, qaysi strategiya bilan to'g'ri javob topganliklarini so'radi – bu o'z navbatida talabalarni o'z fikrlash jarayonini meta-tahlil qilishga o'rgatadi.
- Nazorat guruhi talabari esa shu davr mobaynida odatdagi usulda, hech qanday qo'shimcha interfaol mashg'ulotlarsiz, faqat universitet dasturiga muvofiq mashg'ulotlarda ishtirok etdilar. Bir oylik muddat yakunida har ikki guruh yana post-test (eksperimental dasturdan keyingi test)dan o'tkazildi. Olingan natijalar old-test ko'rsatkichlari bilan taqqoslab, tanqidiy fikrlashdagi o'zgarishlar tahlil qilindi. Shuningdek, eksperimental guruh talabalarining forumlardagi yozishmalari va reflektiv jurnallarining mazmuniy tahlili qilinib, ulardagi tanqidiy fikrlash alomatlari (masalan, savol qo'yish

darajasi, dalillarga tayanuvchanlik, muqobil fikrlarni ko'rib chiqish h.k.) kuzatildi.

Tadqiqot yondashuvi sifatida sifat va son natijalarni birlashtiruvchi yondashuv tanlandi. Miqdoriy analiz uchun test natijalari statistik jihatdan t-test yordamida qayta ishlanib, eksperimental va nazorat guruhlar o'rtasidagi farqning ishonchliligi tekshirildi (Cohen d ko'rsatkichi o'lchandi). Sifat jihatdan esa talabalar fikrlari, ularning dars faoliyati haqidagi mulohazalari interpretativ usulda tahlil qilindi – bu esa jarayonning murakkab jihatlarini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Tahlil va natijalar

Tadqiqot yakunlari onlayn ta'limda tanqidiy fikrlashni shakllantirish bo'yicha qo'llaniladigan metodlarning samaradorligini tasdiqladi. Eksperimental dastur qo'llanilgan guruh talabalar tanqidiy fikrlash testlari natijalarida sezilarli ijobiy o'zgarish ko'rsatdilar. Quyidagi diagrammada eksperimental va nazorat guruhlardagi talabalar test ballarining o'rtacha ko'rsatkichlari solishtirilib, dastur ta'siri yaqqol aks etgan (1-rasm):

Rasm 1. Eksperimental va nazorat guruhlarda tanqidiy fikrlash bo'yicha test o'rtacha ballari (0–30 shkala bo'yicha). Eksperimental guruhda interfaol metodlar qo'llanilgan bir oylik dasturdan so'ng natija sezilarli yaxshilandi, nazorat guruhida esa keskin o'zgarish kuzatilmadi.

Yuqoridagi Rasm 1dan ko'rinib turibdiki, eksperimental guruh talabalar dastur boshlanishida (old-test) o'rtacha ~22 ball ko'rsatgan bo'lsa, dastur yakunida (post-test) ularning natijasi ~25 ballga ko'tarildi. Nazorat guruhida esa boshlang'ich ~22 balldan post-testda deyarli o'zgarishsiz (~22.5) qoldi. Studentning t-testi natijasida eksperimental guruhdagi o'zgarish statistik jihatdan ahamiyatli ekani ($p < 0.05$) aniqlandi, bu esa qo'llangan usullar tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga hissa qo'shganini bildiradi. Ushbu xulosani ilgari o'tkazilgan tadqiqotlar ham qo'llab-quvvatlaydi – masalan, Song va

Cai tajribasida ham bir oylik interfaol trening natijasida talabalar tanqidiy fikrlash ballari o'sishi kuzatilgan edi.

Sifat tahlili jarayonida eksperimental guruh talabalar yozma ishlari va onlayn muloqotlarida bir qator ijobiy o'zgarishlar qayd etildi. Jumladan, dastlabki hafta munozaralarida aksariyat talabalar faqat o'qituvchi bergan savollarga javob berish bilan cheklangan bo'lsa, dastur oxiriga kelib ular mustaqil ravishda savollar qo'yishni boshlaganlari kuzatildi. Forumdagi xabarlarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, talabalar endi hamkasblarining postlarini diqqat bilan o'qib, ulardagi fikrlarga tanqidiy munosabat bildirgan holda mulohaza yuritishga o'tishgan. Misol uchun, bir talabaning munozara davomida keltirgan daliliga boshqa bir talaba qarama-qarshi nuqtai nazardan yondashib, yangi savol bilan murojaat qilgan va shu tariqa bahsni chuqurlashtirgan. Bunday o'zaro savol-javob va muloqot davomida talabalar turli nuqtai nazarlarni ko'rib chiqishga va o'z pozitsiyasini dalillar bilan asoslashga odatlanib bordilar.

Reflektiv jurnallar tahlili esa talabalar tanqidiy fikrlash jarayonini anglashga oid qobiliyatlarida ijobiy siljish borligini ko'rsatdi. Haftalik yozuvlarda dastlab "Men ushbu mavzuni tushundim kabi yuzaki iboralar uchrasa, keyinchalik talabalar "Men avval X deb o'ylagan edim, ammo tadqiqot natijalarini o'rganib, fikrim Y tomonga o'zgardi, chunki ..." kabi chuqur tahliliy ifodalarni qo'llashni boshlaganlari ma'lum bo'ldi. Bu esa talabalar metakognitiv (o'z fikrlashini kuzatish) qobiliyatlarining rivojlangani belgisidir. O'qituvchining har hafta bergan yozma fikr-mulohazalari talabalarni o'z kuchli va zaif tomonlarini yaxshiroq tushunib yetishga, xatolar ustida ishlashga undaganini talabalar tanqidiy fikrlari ham ta'kidlab o'tishdi.

Umuman olganda, o'tkazilgan tadqiqot va ilgari bajarilgan izlanishlar tahlili asosida masofaviy ta'limda tanqidiy fikrlashni shakllantirish uchun quyidagi asosiy samarali metodlar tavsiya etilishi mumkin (1-jadval).

Metod	Tavsif
Savol-javob va axborot izlash	Talabalarga turli darajadagi savollar berish orqali ularni axborot izlashga, tahlil qilishga yo'naltirish. Savollar faktologik, izohlovchi yoki baholovchi bo'lishi mumkin; javobni qidirish jarayonining o'zi talabalarning bilim izlash ko'nikmasini va tahliliy fikrlashini faollashtiradi.
O'z so'zi bilan tushuntirish	Talabalardan o'qilgan matn yoki ma'ruza mazmunini o'z so'zlari bilan izohlash talab qilinadi. Bu usul ular materialni chuqurroq anglashiga va informatsiyani o'zlashtiribgina qolmay, qayta ishlashiga xizmat qiladi. Masalan, murakkab tushunchalarni talaba soddada tilda izohlaganda, uning mavzuni qay darajada tushunganini bilish mumkin.
Munozarali mavzularda debat	Onlayn muhitda talabalarga bahsli mavzu berilib, ikki qarama-qarshi tomon pozitsiyasini himoya qilish vazifasi yuklanadi. Debatlar davomida talabalar turli dalil va isbotlarni keltiradilar, bir-birlarining pozitsiyasini tahlil qiladilar. Natijada barcha ishtirokchilar tahlil, solishtirish va xulosa chiqarish kabi yuqori darajadagi aqliy faoliyatga jalb etiladi.
Case-study va muammo yechish	Talabalarga nazariy bilimlarni amalda qo'llashlari uchun vaziyatli masalalar yoki case-stadiyalar taqdim etiladi. Ular guruhda yoki individual ravishda ushbu vaziyatdagi muammoni tahlil qilib, yechim taklif etadilar. Bu jarayonda talaba tanqidiy savollar berishni, muammo ildizini aniqlashni va turli yechim variantlarini ko'rib chiqishni o'rganadi. Masalan, tibbiyot yo'nalishi talabalari uchun klinik holat tahlili, iqtisodchilar uchun biznes-case tahlili kabi.
Jurnal yuritish (refleksiya)	Har bir talaba o'z o'qish jarayonida o'z fikrlarini yozma ravishda aks ettirib boradi. Kundalik yuritish orqali u darsda olgan bilimni shaxsiy tajriba va dunyoqarash bilan bog'laydi, o'z tushunchalarini tartibga soladi. Bu usul talabaning o'z fikrlash faoliyatini tashqi observatsiya qilishiga imkon yaratadi va tanqidiy o'zini baholash ko'nikmasini rivojlantiradi.
Interfaol o'yin va ilovalar	Ta'lim jarayoniga mobil ilovalar, trening o'yinlarini integratsiya qilish talabalarni qiziqtiradi va ularning tanqidiy fikrlashini mustahkamlaydi. Masalan, mantiqiy jumboqlar, strategik o'yinlar yoki miya rivojlantiruvchi ilovalar qo'llanishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hatto bir oy davomida darslarda interfaol o'yinlardan foydalanishning o'zi tanqidiy fikrlash ko'rsatkichlarining sezilarli oshishiga olib keladi.
Hamkorlikdagi onlayn jamoalar (OER)	Talabalarni kichik o'quv jamoalariga birlashtirib, ularga ochiq ta'lim resurslari (masalan, elektron kutubxona, onlayn ma'lumotlar bazasi)dan foydalangan holda loyihalar ustida birgalikda ishlash vazifasi beriladi. Hamkorlikdagi faoliyat jarayonida talabalar bir-biridan o'rganadilar, bahs-munozaralar orqali reflektiv fikrlashni kuchaytiradilar. Ochiq resurslardan foydalanish esa mavzuni chuqurroq o'rganish va tahlil qilishga sharoit yaratadi.

1-jadval. *Onlayn va masofaviy ta'limda talabalarning tanqidiy fikrlashini shakllantirishga xizmat qiluvchi asosiy metodlar*

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan usullar uyg'un holda qo'llanilganda, masofaviy ta'lim muhitida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish

uchun mustahkam poydevor yaratiladi. Muhimi, o'qituvchi mazkur metodlardan foydalanishda doimiy ijodkorlik va izchillikni

saqlashi lozim – topshiriqlarni qiziqarli va mazmunli qilish, talabalarning faol qatnashishini ta'minlash hamda ular bergan javob va takliflarni e'tibor bilan tahlil qilib, mulohaza berib borish talab etiladi. Masalan, masofaviy kurs davomida har bir haftada turli usullarni almashtirib borish (bir haftada – munozara, keyingi haftada – loyiha, undan so'ng – test va refleksiya va hokazo) talabalarni zeriktirmaydi va har xil fikrlash qirralarini charxlaydi. Shuningdek, texnologik vositalarni to'g'ri tanlash ham muhim: forum, chat, viktorina, videokonferensiya, bulutli hujjatlar – bularning har biri ma'lum metod uchun mos platforma sifatida xizmat qilishi mumkin.

Xulosa va takliflar

Onlayn va masofaviy ta'lim sharoitida talabalar tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish mumkin va zarur. Ushbu tadqiqot va tahlillar shuni ko'rsatadiki, masofaviy ta'limda tanqidiy tafakkurni rivojlantirishning eng samarali yo'li – bu talabalarni o'quv jarayonining markaziga qo'yish, ularni faol muloqot va mustaqil izlanishga jalb etishdan iborat. An'anaviy monologik ma'ruza va yodlashtirish usullari masofaviy muhitda samarasizdir; buning o'rniga dialogik va interfaol yondashuvlarni qo'llash kerak. Talabalar fikr bildirishlari, savol berishlari, birgalikda muhokama qilishlari uchun imkoniyat yaratish lozim – aynan shunday sharoitda ularning tanqidiy fikrlashi tobora o'sib boradi.

Masofaviy ta'limda tanqidiy fikrlashni shakllantirishda quyidagi takliflar beriladi:

- *O'qituvchilarni maxsus tayyorlash:* Darslarini masofaviy formatda tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi tarzda loyihalash ko'nikmasini oshirish uchun pedagog kadrlar malakasini oshirish kurslarini tashkil etish zarur. Ular onlayn muhitda qanday interfaol topshiriqlar berish, qanday baholash mezonlari tuzish va qanday fikr-mulohaza bildirish bo'yicha amaliy ko'nikma hosil qilishlari lozim.

- *Kurikulumga integratsiya:* Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan vazifalar va faoliyatlar o'quv rejasiga, xususan, har bir fandagi mashg'ulotlar tarkibiga kiritilishi kerak. Masalan, har bir kurs uchun talabalarning tanqidiy tafakkur darajasini oshiruvchi kamida bitta loyiha yoki muammoli topshiriq nazarda tutilishi maqsadga muvofiq. Bu topshiriqlar rejali va tizimli ravishda ta'lim jarayonida berib borilsa, kutilgan kompetensiya shakllanadi.
- *Texnik bazani rivojlantirish:* Universitet va institutlarda zamonaviy o'quv platformalari (LMS – Learning Management Systems)ni joriy etish va ulardagi forum, chat, test, baholash kabi funksiyalarni to'liq ishlatish talab etiladi. Masofaviy ta'lim platformasi foydalanuvchilarga qulay va ishonchli bo'lsa, o'qituvchi unda turli tanqidiy fikrlash mashqlarini osongina tashkil qila oladi. Shu bilan birga, texnik vositalar xavfsizligi va axborotlarning haqqoniyligi ta'minlanishi, talabalar axborotni tanqidiy baholashni o'rganishlari uchun muhit yaratilishi lozim.
- *Doimiy tahlil va takomillashtirish:* Masofaviy kurslar doirasida talabalar tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining o'sishini monitoring qilib borish, natijalarni tahlil qilish va shu asosda metodik yondashuvlarni takomillashtirib borish zarur (Abdullaeva, 2022). Har bir semestr yakunida talabalar fikri so'rovlari o'tkazish, ularning reflektiv yozuvlarini o'rganish orqali qaysi usullar eng foydali ekanini aniqlash va kelgusi o'quv davrida shu usullar ulushini oshirish tavsiya etiladi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, tanqidiy fikrlashni shakllantirish – bu bir martalik mashg'ulot bilan hal bo'ladigan masala emas, balki uzluksiz jarayondir. Masofaviy ta'lim esa bunday jarayonni amalga oshirish uchun yangi maydon ochib beradi va o'ziga xos yondashuvlarni taqozo etadi. O'qituvchi va

talabalar o'rtasida ishonch va muloqotga asoslangan muhit yaratilsa, eng yangi pedagogik texnologiyalar va an'anaviy ilmiy yondashuvlar uyg'unlashsa, masofaviy ta'lim

talabalarning tanqidiy fikrlovchi, mustaqil va kreativ mutaxassis bo'lib yetishishiga xizmat qilishi shubhasiz.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullaeva G. X. (2022). Masofaviy ta'limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish usullari. *Pedagogik ilmiy jurnal*.
2. G'afforova, G. (2012). Mustaqil fikrlashga o'rgatish bugungi ta'limning asosiy vazifalaridan biridir. *Boshlang'ich ta'lim jurnali*, (9).
3. Jowallah, R., et al. (2014). Using a guided approach to support critical thinking in online discussions. *University of Central Florida Teaching Online Pedagogical Repository (UCF TOPR)*.
4. Mirziyoyev, Sh. M. (2020, October 30). *Ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish to'g'risida* [Speech].